

## TO’NYUQUQ BITIKTOSHIDA HIKOYA SHAKLI VA NUTQ USLUBI

**Taylakova Moxinur Nematovna**

*Berdaq nomidagi*

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*O’zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolaning maqsadi To’nyuquq bitiktoshidagi hikoya shakli va nutq uslubining adabiy va tarixiy jihatlarini o’rganishdir. Tadqiqotda tilshunoslik va tarixiy analiz metodlari qo’llanilib, matndagi qisqa, lo’nda va ta’sirchan iboralar tahlil qilindi. Asosiy usul sifatida birinchi shaxs nutqi va shaxsiy kechinmalar orqali voqealarni yetkazish usuli ko’rib chiqildi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, matn nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiribgina qolmay, balki xalq ongiga targ’ibot va davlatparvarlik ruhini ham singdiradi. Umuman olganda, tadqiqot bitiktoshning milliy o’zlik va madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi va zamonaviy tilshunoslik, tarixiy tahlil uchun yangi yondashuvlarni taklif etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *turkiy bitiklar, nutq uslubi, tarixiy yodgorlik, hikoya shakli, strategik tafakkur.*

### KIRISH

To’nyuquq bitiktoshi muayyan ommani xabardor qilish maqsadida bitilgan bo’lib, faqat til jihatidan emas, balki tuzilishi va ifoda uslublari jihatidan ham puxta o’ylangan yaxlitlikni namoyon etadi. Alyilmaz ta’kidlaganidek, matn tasodifiy yozilmagan; har bir tafsilot bitiklarga o’yib yozilishidan oldin rejalashtirilgan. Til nihoyatda ixcham va ta’sirchan qo’llangan, kimlar va qanday voqealar haqida gapirilishi kerakligi, bu voqealar qanday ifodalangani matnning asosiy maqsadi doirasida aniqlangan.

Bitiklar yozilgan davrga yaqin siyosiy va harbiy voqealarni qamrab olsa-da, ularni oddiy tarixiy yilnomalar shaklida emas, balki muayyan maqsadga yo’naltirilgan uslubda bayon qiladi. Asosiy maqsad – voqealarni shunchaki qayd etish emas, balki ularni muayyan shaklda taqdim etish va shu orqali eslab qolishdir. Yozuvlar bevosita bir ommaga qaratilish, ularning ongiga ta’sir o’tkazishni ko’zlaydi. Boshqacha aytganda, matn o’tmishni shakllantirib, hozir va kelajakni belgilovchi asosiy omil sifatida vujudga keladi.

Ushby maqolada To’nyuquq bitiktoshining o’z davri uchun qanday ma’naviy-mafkuraviy ahamiyat kasb etgani o’rganiladi. Tadqiqot natijalari tarix, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalari vakillari uchun qiziq bo’lishi mumkin.

### ASOSIY QISM

To’nyuquq bitiktoshi o’zining hikoya shakli bilan ajralib turadi. Matn birinchi shaxs nutqida yozilgan bo’lib, voqealar muallifning shaxsiy tajribasi va qarashlari asosida bayon qilinadi. Bu jihat matnga avtobiografik tus berib, uni hayotiyroq qiladi.

Misol uchun, bitiktoshning boshlanishida Bilge To’nyuquq o’zining kimligini ifoda etadi:

“Bilgä Tonyuquq bän özün Tabğaç älija qılıntıım. Türk bödün Tabğaçqa körür ärti.

Ya’ni

Bilga To’nyuquq men o’zim Tabg’ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg’achga qarar edi.”

Bu so’zlar shundan dalolat beradiki, muallif avvalo o’zining dunyoqarashini shakllantirgan muhitni ta’kidlab, voqealarni shaxsiy guvohlik asosida hikoya qilishga kirishadi. Shuningdek, matnda voqealar mantiqiy tartibda joylashtirilgan bo’lib, o’ziga xos dramatik tuzilishga ega. Masalan, muallif dastlab turkiy xalqning og’ir ahvolini tasvirlaydi, so’ngra o’zining harbiy-siyosiy faoliyatini bayon qiladi va bu jarayonda turli qiyinchiliklarni yengib o’tganini ko’rsatadi.

Bitiktoshda hikoya qilish uslubining o’ziga xosligi shundaki, unda tarixiy voqealar faqatgina faktlar bilan emas, balki muallifning shaxsiy kechinmalarini va qarorlari bilan bog’liq holda bayon etiladi. Misol uchun, Xitoy bilan olib borilgan siyosiy muhokamalar yoki harbiy yurishlar to’g’risidagi tafsilotlar To’nyuquqning o’z nutqi orqali ifodalangan. Matnda quruq sanalar yoki faktlar berishning o’rniga, voqealar ichki kechinmalarini va strategik qarorlar orqali ochib beriladi. To’nyuquq o’z so’zlari bilan faqat urush tafsilotlarini emas, balki xalqning ruhiyatini ham aks ettiradi.

Matnda shaxsiy yondashuv yaqqol sezilib turadi. To’nyuquq voqealarni birinchi shaxsda hikoya qiladi, o’zining qarorlarini asoslaydi, dushman ustidan qanday g’alaba qozonganini tushuntiradi. U o’zining rolini faqat harbiy maslahatchi sifatida emas, balki xalqini saqlab qolgan davlat arbobi sifatida ham ko’rsatadi. Uning nutqidan shaxsiy fidoyilik, vatanparvarlik va uzoqni ko’ra bilish hissi seziladi.

Misol uchun To’nyuquq o’zining xalq oldidagi burchini quyidagicha ifodalaydi:

“Eltarish xoqon va dono To’nyuquq muvaffaqiyat qozongani uchun Qapag’an xoqon, Turk sir xalqi yurgan bu davlat yashab turibdi.”

Bu so’zlar bitiktosh matnining asosiyligi g’oyalaridan birini ochib beradi – davlatning mustahkamligi hukmdor va uning maslahatchilarining dono qarorlariga bog’liq. To’nyuquq faqat urushlarni emas, balki butun xalq taqdirini o’z zimmasiga olgan shaxs sifatida gavdalananadi.

Matnda turli janglar va harbiy yurishlar jonli va hayotiy ifoda etilgan. To’nyuquq voqealarni tasvirlar ekan, ularga o’z fikrini ham qo’shib boradi va qaror qabul qilish jarayonini tushuntiradi. Masalan, qirg’izlarga qarshi yurish haqida quyidagicha bayon etiladi:

“Ani daryosidan boraylik! dedim. Daryo suvining quyi tomoniga yurdik. Lashkarni sanash uchun tushirdik. Otlarni o’tga boyladik. Keyin yana yo’lga tushdik. Kun ham, tun ham yelib bordik. Qirg’iz (qabilasi)ni uyquda bosdik. Jang qildik, sanchdik, xoqonini o’ldirdik.”

Bu tasvirlar jangning nafaqat natijasini, balki unga qanday tayyorgarlik ko’rilganini ham ochib beradi. To’nyuquqning donoligi shundaki, u jang oldidan geografik sharoitlarni,

yo’llarni, dushmanning joylashuvini sinchkovlik bilan o’rganadi. U tasodifan qaror qabul qilmaydi, balki barcha omillarni inobatga olib, eng samarali strategiyani tanlaydi. Dushman kuchlari haqida xabar olgach To’nyuquq muhim qaror qabul qiladi. Yo’l qordan to’silganligi sababli boshqa yo’llarni qidirib, mahalliy yo’l boshlovchilar yordamida tog’lardan o’tish yo’lini topadi. U qo’shin bilan og‘ir sharoitlarda harakatlanib, dushmanni kutilmaganda bosib oladi. Bu tafsilotlar To’nyuquqning harbiy donoligi va uzoqni ko’ra bilish qobiliyatini namoyon etadi.

To’nyuquq bitiktoshida faqat janglar emas, balki davlatning mustahkamligi va xalqning birdamligi haqidagi fikrlar ham bayon etiladi. U o’zining nutqida hukmdor va xalq o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ta’kidlaydi. To’nyuquqning fikricha, xalq mustahkam bo’lsa, davlat ham barqaror bo’ladi, xalq tarqoq bo’lsa, davlat ham yemiriladi.

“Tangri yorlaqagani uchun dushman ko’p deb biz qo’rqedik, jang qildik.”

Bu so’zlardan xalqning ruhiyati, qo’rquvni yengib o’tish, o’z kuchiga bo’lgan ishonchni shakllantirish g’oyasi yaqqol seziladi. To’nyuquq nafaqat harbiy strateg, balki xalq ruhiyatini ko’taruvchi yetakchi sifatida ham maydonga chiqadi. Shuningdek, u davlat arbobi sifatida kelajakni ham o’laydi. Matnda uning uzoqni ko’ra bilishi, dushmanlarning harakatlarini oldindan bilishga intilishi yaqqol ko’rinadi. Masalan, To’nyuquq uch xoqonning turklarga qarshi ittifoq tuzayotganini eshitgach, u uyqudan kechib, dushmanni oldin bosib olish kerakligi haqida o’laydi. Bu uning doimiy hushyorligi, siyosiy va harbiy tafakkurining kengligini ko’rsatadi. To’nyuquq bitiktoshi nafaqat tarixiy voqealarning qaydi, balki xalq ruhiyatini aks ettiruvchi manba hamdir. Unda shaxsiy kuzatuvlar, strategik qarorlar va hayotiy tajriba mujassamlangan. Bitiktosh To’nyuquqning faqatgina harbiy maslahatchi emas, balki xalq yetakchisi sifatidagi rolini ham ochib beradi. To’nyuquqning hikoyalari oddiy tarixiy faktlar emas, balki uzoq asrlar davomida turkiy xalqlarga saboq bo’lib kelayotgan fidoyilik va donishmandlik timsolidir. To’nyuquq bitiktoshidagi nutq uslubi nihoyatda sodda, lekin ta’sirchan. Unda ortiqcha bezaklar, murakkab iboralar kam uchraydi, buning o’rniga qisqa, lo’nda va aniq fikr ifodalari ishlataligancha.

Bitiktoshda nutqning targ’ibot xususiyati yaqqol seziladi. Muallif o’z nutqida xalqni uyg’otishga, ularga jasorat va ishonch bag’ishlashga intiladi. Masalan:

“Turk xalqi qaysi tomonga ketsa, o’sha yerda dushmani bor.”

Bu jumlada xalqni doimo ehtiyyot bo’lishga, dushman hujumidan xabardor turishga chaqiriq mavjud. Shuningdek ko’plab bu kabi iboralar xalqni birlashtirishga xizmat qilgan. Matnda shoh va sarkardalar o’rtasidagi muloqotlar ham uchraydi. Bu esa hikoyaning jonli va ta’sirchan bo’lishiga xizmat qiladi. Misol uchun, Kapag’an xoqon va To’nyuquq o’rtasidagi suhbatlar voqealarga realistik tus beradi va ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini yoritadi.

To’nyuquq nutqida tezkor va ravon iboralar ko’p uchraydi. U uzun, murakkab jumlalardan qochib, ko’proq qisqa va samarali gaplardan foydalanadi. Masalan:

“Xalq och qoldi, yalang’och bo’ldi. Men o’yladim, men bilaman.”

Bu kabi jumlalar mazmun jihatidan juda chuqur bo‘lib, qisqa bo‘lishiga qaramay, keng ma’noga ega. Shu sababdan, bitiktoshdagi ifoda uslubi har jihatdan ta’sirchan va kuchli hisoblanadi.

### XULOSA

To‘nyuquq bitiktoshining hikoya shakli va nutq uslubi o‘zining soddaligi, kuchli ta’sirchanligi va aniq mantiqiy tuzilishi bilan ajralib turadi. Matn voqealarning shaxsiy guvohlik asosida hikoya qilinishi va realistik tafsilotlari bilan tarixiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Nutq uslubi esa qisqalik, lo‘ndalik va buyruq ohangiga asoslangan bo‘lib, targ‘ibot va mafkuraviy jihatdan kuchli ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Matnning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Birinchi shaxs nutqi orqali jonli hikoya shakli yaratilgan.
- Harbiy yurishlar va qarorlar amaliy va ta’sirchan uslubda bayon qilingan.
- Qahramonlik, fidoyilik va davlatparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan.

• Hukmdor va xalq o‘rtasidagi bog‘liqlik, birdamlik va davlat mustahkamligi ta’kidlangan.

Bitiktosh o‘z davrida nafaqat siyosiy va harbiy voqealarni qayd etgan hujjat bo‘lib xizmat qilgan, balki xalq ongiga ta’sir ko‘rsatgan, uni tarbiyalagan va birlashtirgan. To‘nyuquqning nutq uslubi ham aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, bugungi kunda ham tarixiy adabiyot va tilshunoslik nuqtayi nazaridan qimmatli yodgorlik hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ Taqrizchilar: M. Qodirov, U. Normatov. – T.: «Sharq», 2013. – 368 b.
2. Talat Tekin, To‘nyukuk Yaziti, Simurg, Ankara: 1994.
3. Alyilmaz C.(2021)Bilga Tonyukuk ve yazitlari.IX.Uluslararası Türk dili kurultayı:bilga Tonyukuk anisina.Ankara:26-30 Eylul 2021.